

## «Biz bilan bir yo‘lda»

### AKSIYASINING RASMIY QOIDALARI

(keyingi o‘rinlarda – «Qoidalar»)

#### 1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu Qoidalar “**Biz bilan bir yo‘lda**” aksiyasi (keyingi o‘rinlarda - **Aksiya**)ni o‘tkazish tartib va shartlarini belgilaydi. Aksiya g‘oliblari mazkur Qoidalarda belgilangan mezonlarga muvofiq aniqlanadi. Aksiyada ishtirok etish bepul. Aksiya qimor o‘yini hisoblanmaydi va qimor o‘yinlarining har qanday shakli sifatida qo‘llanilishi mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Aksiya rag‘batlantiruvchi lotoreya o‘yini hisoblanmaydi.
- 1.2. Ushbu Qoidalar shartnomaning barcha amaldagi shartlarini o‘z ichiga oladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi (keyingi o‘rinlarda - O‘zR FK) 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ushbu Qoidalar ishtirok etish shartlari, G‘oliblarni aniqlash va Mukofotlarni topshirish tartibi hamda Tashkilotchi tomonidan o‘tkaziladigan Aksiyani tashkil etish va olib borishning boshqa mavjud shartlarini tavsiflaydi.
- 1.3. Aksiya tashabbuskori «Korporatsiya Viza Interneshnl Servis Assosieshn» (keyingi o‘rinlarda - «**Tashabbuskor**») bo‘lib, quyidagi manzilda joylashgan: AQSH, Kaliforniya 94404, Foster Siti, Bulvar Metro markazi 900. (ёки markazni катта ҳарфда ёзиш керак, ёки Sitini kichik ҳарфда ёзиш кк)
- 1.3.1. Aksiya tashkilotchisi "AVTOMATLASHTIRILGAN TRANSPORT TO’LOV TIZIMI OPERATORI" MCHJ (STIR: 306954304) bo‘lib, quyidagi manzilda joylashgan: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Glinka ko‘chasi, 25-uy.

#### 2. Ushbu Qoidalar matnida foydalanilgan atamalarning ta’riflari

- 2.1. **Aksiya ishtirokchisi** – O‘zbekiston Respublikasining istalgan banklari (keyingi o‘rinlarda – Bank(lar)) tomonidan mazkur Qoidalar shartlariga muvofiq chiqarilgan har qanday turdagি Visa to‘lov kartasi egasi.
- 2.2. **Bank(lar)** – O‘zbekiston Respublikasi hududida tegishli litsenziya asosida o‘z faoliyatini amalga oshiruvchi, o‘z mijozlari, jismoniy shaxslar uchun VISA to‘lov kartalarini chiqaruvchi O‘zbekiston Respublikasi Bank(lar)i.
- 2.3. **Mukofot** – Visa bank kartalari bilan Toshkent shahridagi metro va avtobuslarda yurish uchun 30% chegirma.
- 2.4. **Ishtirokchi** – ushbu Qoidalar shartlariga muvofiq harakat qiluvchi Aksiya qatnashchisi.

#### 3. Aksiyani o‘tkazish muddati

- 3.1. Aksiyani o‘tkazish muddati: 20.09.2021 yildan 31.12.2021 yilgacha (31- sana ham kiradi).
- 3.2. Tashkilotchi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, ogohlantirish bergen holda, istalgan vaqtida Aksiya o‘tkazish muddatlari, sovrin jamg‘armasi va ishtirok etish shartlariga qo‘srimcha va/yoki o‘zgratirishlar kiritish, shuningdek, Aksiyani o‘tkazishni to‘xtatish, qisman yoki to‘liq bekor qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Amalga oshirilgan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumot [https://cis.visa.com/ru\\_TJ](https://cis.visa.com/ru_TJ) veb-saytida joylashtiriladi.

#### 4. Aksiyada ishtirok etish shartlari

- 4.1. Aksiya ishtirokchisi – Toshkent shahrida jamoat transporti uchun Visa kartasi orqali to‘lovlarini amalga oshiruvchi Visa Bank kartasi egasi hisoblanadi.

#### 5. Aksiyani o‘tkazish tartibi

- 5.1. Visa bank kartalari egalari Toshkentda jamoat transportida harakatlanish uchun 980 so‘m to‘lashlari mumkin. Aksiya doirasida Visa bank kartalari bilan avtobus va metro uchun to‘lovlarini amalga oshirish 30% ga arzonroq – 1400 so‘m o‘rniga 980 so‘m bo‘ladi. Aksiyada barcha turdagи Visa kartalari ishtirok etadi.
- 5.2. Aksiya mukofotini olish huquqiga ega bo‘lgan Aksiya ishtirokchilari tomonidan faqatgina ushbu Qoidalarda nazarda utilgan shartlarda olinishi mumkin.
- 5.3. Aksiya mukofotini almashtirish yoki qaytarish mumkin emas.
- 5.4. Berilgan mukofotni almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.
- 5.5. Mukofotlar miqdori ushbu qoidalarning 3-bo‘limiga muvofiq, 5.1.-bandida belgilangan tartibda faqatgina Aksiyani o‘tkazish muddati bilan chegaralanadi.

- 5.6. Aksiya Tashkilotchisi Aksianing Umumiy Mukofot jamg‘armasini ko‘paytirish yoki kamaytirish hamda Aksiyaga ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan qo‘shimcha Mukofotni kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Agar bunday o‘zgarishlar amalga oshirilsa, Tashkilotchi bu haqida ushbu Qoidalarning 8-bandida belgilangan tartibda xabardor qiladi.
- 5.7. O‘ynaladigan (Qoidalarning 5.1.-bandida keltirilgan) Aksiya mukofotlari qiymatini soliqqa tortish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiliga muvofiq daromadning ushbu turi uchun belgilangan stavka bo‘yicha amalga oshiriladi. Aksiya tashkilotchisi, soliq agenti sifatida, Aksiya G‘oliblari tomonidan olingan/yutilgan mukofotlar qiymati bo‘yicha jismoniy shaxslar daromad solig‘ini hisoblaydi (ushlab qoladi) va o‘tkazadi **hamda** tegishli soliq organiga Aksiya G‘oliblarining mukofotlari bo‘yicha soliqlarning ushlab qoliganligi va to‘lab berilganligi to‘g‘risida ma’lumot yuboradi.

## 6. Aksiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatları

### 6.1. Aksiya ishtirokchilarining huquqlari:

- Qoidalalar bilan tanishish.
- Ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda Aksiyada ishtirok etish.
- Qoidalarning o‘zgarganligi to‘g‘risida ma’lumot olish.

### 6.2. Aksiya ishtirokchilarining majburiyatları:

- Ushbu Qoidalalar shartlariga rioya qilish.

## 7. Aksiya tashkilotchsining huquq va majburiyatları

### 7.1. Tashkilotchining majburiyatları:

- Ushbu Qoidalarga muvofiq Aksiyani o‘tkazish.
- Aksianing barcha ishtirokchilariga mukofotlarni taqdim etish.

### 7.2. Tashkilotchining huquqlari:

- Tashkilotchi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda ushbu Aksiya Qoidalarda nazarda tutilgan barcha huquqlardan foydalanadi.
- Ushbu Aksiya Qoidalari talablariga javob bermaydigan Ishtirokchiga mukofot taqdim etishni rad etish.

## 8. Aksiya ishtirokchilariga o‘tkazish muddati va shartlari haqida ma’lumot berishning tartib va shartlari

- 8.1. Aksiya Ishtirokchilari va muayyan ishtirokchilarga Aksiyani o‘tkazish tartibi va shartlari haqida ma’lumot berish ushbu Qoidalarning 3.1.-bandida ko‘rsatilgan Aksiyani o‘tkazish muddatida ushbu Qoidalari **hamda** Aksiya to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tarqatish yo‘li bilan amalga oshiriladi.
- 8.2. Aksiya tashkilotchii ushbu Qoidalarga o‘zgartirishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Aksiyani o‘tkazish muddati uzaytirilganda yoki Qoidalarga boshqacha o‘zgartirishlar kiritilganda, Tashkilotchi ushbu o‘zgarishlarni hamda yangi Qoidalarni e‘lon qiladi.

## 9. Shaxsiy ma’lumotlar

- 9.1. Aksiya Ishtirokchisi shaxsan, o‘z nomidan, ixtiyoriy **hamda** mustaqil tarzda harakat qiladi. Aksiya Ishtirokchisi Aksiyada qatnashish va mukofotlarni olish bilan bog‘liq barcha xatarlar va oqibatlar bo‘yicha javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.
- 9.2. Tashkilotchi Ishtirokchining ushbu Qoidalarning 10.1.-bandiga muvofiq olingan shaxsiy ma’lumotlari faqatgina qonunchilik bilan belgilangan soliqlarni to‘lash, soliq organlariga hisobotlar yuborish va tegishli Mukofotlarni yetkazib berish uchun foydalanimishini **hamda** Ishtirokchining qonuniy huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan boshqa har qanday tarzda foydalanimasligini (shu jumladan oshkor etilmasligini) kafolatlaydi.
- 9.3. Shuhhalardan holi bo‘lish uchun hech qanday shaxsiy ma’lumotlar Aksiya Tashabbuskoriga taqdim etilmaydi va u tomonidan foydalanilmaydi(qayta ishlanmaydi).

## 10. Boshqa shartlar

- 10.1. Aksiyani o‘tkazish bo‘yicha Tashkilotchining barcha qarorlari yakuniy hisoblanadi hamda muhokama qilinmaydi.
- 10.2. Tashkilotchi ushbu Qoidalarning 8.-bandida keltirilgan tartibda Aksiya haqida qo‘shimcha ma’lumotlarni joylashtirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.
- 10.3. Tashkilotchi quyidagi hollarda Mukofotlarni berishni to‘xtatib qo‘yish yoki rad etish huquqini o‘zida saqlab qoladi:

- Agar Ishtirokchi ushbu Qoidalarning boshqa shartlarini buzsa, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan boshqa hollarda;
  - Agar Tashkilotchida Ishtirokchining Aksiyada halol qatnashayotganiga shubha paydo bo'lsa.
- 10.4. Tashkilotchi Aksiya Ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa har qanday shaklda muloqotga kirishmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan yozma muzokaralar o'tkazish talab qilinadigan hollar bundan mustasno.
- 10.5. Aksiya Ishtirokchisi Aksiyada ishtirok etishida ushbu Qoidalalar bilan tanishib chiqqanligini **hamda** unga to'liq va so'zsiz rozi ekanligini tasdiqlaydi.
- 10.6. Agar Mukofot «olishni rad etish» sababli rad etilsa, u G'olib tomonidan takroran talab qilinmaydi. Bunday mukofotlarning to'lanmaganligi bo'yicha da'volar qabil qilinmaydi.
- 10.7. Agarda kompyuter viruslari bilan zararlanish, Internet tarmog'i ishidagi uzilishlar, nuqsonlar, manipulyatsiyalar, ruxsatsiz aralashuvlar, soxtalashtirish, texnik kamchiliklar kabi Tashkilotchi tomonidan boshqarib bo'lmaydigan va Aksiyani o'tkazishning xavfsizligi, halolligi, to'g'ri o'tkazilishiga xalal beruvchi yoki bunga imkon qoldirmaydigan qandaydir sabab tufayli ushbu Aksiyaning ixtiyoriy jihatni rejalashtirilgandek amalga oshmasa, Tashkilotchi Aksiyani o'tkazishni bekor qilish, to'xtatish, o'zgartirish yoki rad qilish masalasini ko'rib chiqishi mumkin.
- 10.8. Shubhalardan holi bo'lish uchun, Visa Inc. kompaniyasi va unga tegishli har qanday shaxslar Tashkilotchi bo'lmaydi, Aksiyada, G'oliblarni aniqlashda va/yoki mukofotlarni taqdim etishda ishtirok etmaydi hamda Tashkilotchining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi ushbu Qoidalarga rioya etishi uchun javobgar bo'lmaydi, shuningdek, Ishtirokchilarning e'tirozlariga javob bermaydi.